

**K.KOLLODINING LE AVVENTURE DI PINOCCHIO
(PINOKKIONING SARGUZASHTLARI) ASARIDA
OBRAZLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI**

O'zbekiston davlat jahon tillari

Universiteti Tarjimonlik fakulteti

Italyan tili tarjima nazariyasi va amaliyoti

Kafedra o'qituvchisi

Otaxonova Munisxon Janibek qizi

muniskhanotakhanova@gmail.com

+ 99 8(99) 045 21 09

Annotatsiya.

Ushbu maqolada Pinokkioning sarguzashtlari asaridagi asosiy obrazlarning lingvokulturologik xususiyatlari kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Pinokkio, Jepetto, Tulki, Mushuk va Chigirtka obrazlari misolida italyan xalqining axloqiy qadriyatlari, ijtimoiy stereotiplari va tarbiyaviy qarashlari yoritiladi. Asarda hayvon obrazlari orqali insoniy xulq-atvorning ramziy ifodalanishi, antropomorfizm hodisasi va uning madaniy asoslari ochib beriladi. Shuningdek, Pinokkioning oddiy yog'och qo'g'irchoqdan haqiqiy insonga aylanish jarayoni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilinib, bu jarayon individning axloqiy yetilishi, ijtimoiy mas'uliyatni anglash va jamiyatga moslashuvi bilan bog'liq ekani asoslanadi. Maqolada, shuningdek, asarda aks etgan halollik, mehnatsevarlik, vijdon, oilaviy qadriyatlar kabi tushunchalarning italyan madaniyatidagi o'рни va ahamiyati ham ko'rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari ushbu asarni nafaqat adabiy, balki madaniy va tarbiyaviy fenomen sifatida baholash imkonini beradi.

Kalit so'zlar: lingvokulturologiya, obraz, ramz, italyan madaniyati, Pinokkio, axloqiy qadriyatlar, antropomorfizm, tarbiya.

**Аннотация.**

В данной статье представлен комплексный лингвокультурологический анализ основных персонажей произведения Приключения Пиноккио. В ходе исследования рассматриваются образы Пиноккио, Джеппетто, Лисы, Кота и Говорящего Сверчка, через которые раскрываются нравственные ценности, социальные стереотипы и воспитательные установки итальянского общества. Особое внимание уделяется символическому отражению человеческих качеств через образы животных, а также феномену антропоморфизма как важному элементу художественной структуры произведения. Кроме того, анализируется процесс превращения Пиноккио из деревянной куклы в настоящего человека с точки зрения лингвокультурологии, где данный процесс рассматривается как результат нравственного становления личности, формирования социальной ответственности и адаптации к общественным нормам. В статье также освещаются такие ключевые понятия, как честность, трудолюбие, совесть и семейные ценности, подчеркивается их значимость в итальянской культуре. Результаты исследования позволяют рассматривать произведение не только как литературный текст, но и как важное культурно-воспитательное явление.

Ключевые слова: лингвокультурология, образ, символ, итальянская культура, Пиноккио, нравственные ценности, антропоморфизм, воспитание

Abstract.

This article provides a comprehensive linguocultural analysis of the main characters in *The Adventures of Pinocchio*. The study examines the characters of Pinocchio, Geppetto, the Fox, the Cat, and the Talking Cricket in order to reveal Italian cultural values, social stereotypes, and educational concepts embedded in the text. Particular attention is given to the symbolic representation of human traits through animal characters, highlighting the role



of anthropomorphism as a key narrative and cultural device. Furthermore, the transformation of Pinocchio from a wooden puppet into a real human being is analyzed from a linguocultural perspective, emphasizing moral development, the formation of social responsibility, and adaptation to societal norms. The article also explores key concepts such as honesty, diligence, conscience, and family values, demonstrating their significance within Italian culture. The findings suggest that the work should be considered not only as a literary text but also as a cultural and educational phenomenon.

Key words: linguoculturology, character, symbol, Italian culture, Pinocchio, moral values, anthropomorphism, education.

Kirish. Carlo Collodi tomonidan yozilgan Pinokkioning sarguzashtlari asari oddiy bolalar ertagi sifatida ko‘rinsa-da, aslida unda chuqur ma’no va madaniy qatlamlar yashiringan. Asar orqali muallif nafaqat qiziqarli voqealarni hikoya qiladi, balki italyan xalqining yashash tarzi, axloqiy qarashlari va tarbiya haqidagi tushunchalarini ham ko‘rsatadi. Har bir obraz — bu shunchaki qahramon emas, balki ma’lum bir xulq-atvor va hayotiy qarashning ifodasidir. Lingvokulturologik yondashuv yordamida bu asarni yanada chuqurroq tushunish mumkin. Ya’ni, asardagi so‘zlar, iboralar va obrazlar orqali milliy madaniyat qanday ifodalanganini ko‘rish mumkin bo‘ladi. Masalan, Pinokkioning xatti-harakatlari orqali bolaga qanday bo‘lish kerakligi o‘rgatilsa, boshqa obrazlar orqali yaxshi va yomonning farqi ochib beriladi. Bu esa asarning tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi.

Pinocchio obrazi asarda markaziy o‘rinni egallab, nafaqat syujetni harakatlantiruvchi qahramon, balki “inson bo‘lish jarayoni”ning ramziy modeli sifatida talqin qilinadi. U dastlab oddiy yog‘och qo‘g‘irchoq sifatida yaratilgan bo‘lsa-da, voqealar davomida turli sinovlar, xatolar va tajribalar orqali asta-sekin ijtimoiy va axloqiy jihatdan shakllanadi. Shu jihatdan Pinokkio obrazi insonning biologik mavjudotdan ko‘ra ko‘proq ma’naviy va ijtimoiy mavjudot

ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni, inson bo'lish tug'ma emas, balki o'rganiladigan va shakllanadigan jarayon sifatida talqin qilinadi.

Lingvokulturologik nuqtai nazardan qaralganda, Pinokkioning odamga aylanishi italyan madaniyatida muhim hisoblangan bir qator qadriyatlar bilan chambarchas bog'liqdir. Xususan, mehnatsevarlik, itoatkorlik, kattalarga hurmat va eng asosiysi vijdon tushunchasi ushbu jarayonning asosiy omillari sifatida namoyon bo'ladi. Pinokkio boshida erkinlikni noto'g'ri tushunadi, mas'uliyatsiz harakat qiladi, o'qishdan qochadi va oson yo'l bilan muvaffaqiyatga erishmoqchi bo'ladi. Biroq, u asta-sekin bu yo'lning noto'g'riligini anglab yetadi. Demak, uning insoniylashuvi tasodifiy emas, balki ichki o'zgarish, xatolardan saboq olish va axloqiy yetilish natijasidir.

Shuningdek, Pinokkioning yolg'on gapirganda burnining o'sishi motivi asarning eng muhim ramziy elementlaridan biri hisoblanadi. Bu hodisa bir qarashda fantastik yoki kulgili ko'rinsa-da, aslida chuqur lingvokulturologik ma'noga ega. U "haqiqat va yolg'on" o'rtasidagi qarama-qarshilikni aniq va vizual tarzda ifodalaydi. Ya'ni, yolg'on yolg'onligicha qolmaydi, balki baribir oshkor bo'ladi degan g'oya ilgari suriladi. Bu motiv umumiy bo'lsa ham, italyan madaniyatida halollik va rostgo'ylik qadriyatlariga alohida e'tibor berilishi bilan hamohangdir. Bundan tashqari, burnining o'sishi lingvistik jihatdan ham qiziqarli hodisa sifatida qaraladi. Chunki bu yerda ichki axloqiy buzilish tashqi belgiga aylantiriladi. Bu esa abstrakt tushunchani (yolg'on) konkret obraz (o'sib borayotgan burun) orqali ifodalash usulidir. Natijada o'quvchi uchun axloqiy g'oya yanada tushunarli va esda qolarli bo'ladi. Pinocchioning odamga aylanishi asarda tasodifiy yoki sehrli mukofot emas, balki uning ichki o'zgarishi va axloqiy yetilishining mantiqiy natijasi sifatida talqin qilinadi. Dastlab Pinokkio erkinlikni noto'g'ri tushunadi: u o'qishdan qochadi, oson boyluk orttirishni xohlaydi va boshqalarning gapiga tez ishonadi. Ayniqsa, *Il Gatto e la Volpe* (Tulki va Mushuk) bilan bo'lgan suhbatlari uning hali tajribasiz va ishonuvchan ekanini yaqqol ko'rsatadi. Masalan, ular

Pinokkioga “Mo‘jizalar dalasi” haqida gapirib, pullarini yerga ko‘msa, daraxt bo‘lib ko‘payishini va‘da qilishadi. Pinokkio bunga ishonib, shunday deydi: *“Seppellirò le monete e domani saranno mille!”* (Men tangalarni ko‘maman va ertaga ular ming tanga bo‘ladi!). Bu yerda uning tez boyish istagi va soddaligi aks etadi. Tulki esa uni yanada ishontirib: *“Noi lo sappiamo per esperienza!”* (Biz buni tajribamizdan bilamiz!) deya yolg‘on gapiradi. Mushuk esa bu yolg‘onni qo‘llab-quvvatlab, Pinokkioga ergashishni davom ettiradi. Natijada Pinokkio aldanadi va pullaridan ayriladi. Biroq aynan shu voqealar Pinokkioning o‘shiga turtki bo‘ladi. U asta-sekin tushuna boshlaydiki, oson yo‘l bilan muvaffaqiyatga erishib bo‘lmaydi, ishonch har doim ham o‘zini oqlamaydi va har bir harakat uchun javobgarlik bor. Keyinchalik u boshqalarga yordam berishni, ayniqsa otasi Jepettoni qutqarishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘yadi. Shu jarayonda u o‘z xatolarini angelaydi, ulardan saboq chiqaradi va tobora mas‘uliyatli bo‘lib boradi. Shu sababli Pinokkioning odamga aylanishi uning quyidagi ichki o‘zgarishlari bilan bog‘liq: u o‘z xatolarini angelaydi, boshqalarga yordam bera boshlaydi va shaxsiy istaklardan ko‘ra ijtimoiy mas‘uliyatni ustun qo‘yadi. Bu esa italyan madaniyatidagi “yaxshi bola” konsepsiyasiga to‘liq mos keladi. Ya‘ni, haqiqiy inson bo‘lish bu faqat yashash emas, balki to‘g‘ri yashashni o‘rganishdir. *Il Gatto e la Volpe* Pinokkioning sarguzashtlari asarida italyan folkloriga xos an‘anaviy hiylakor va firibgar tipajlarning yorqin badiiy ifodasidir. Bu ikki qahramon orqali muallif jamiyatda uchraydigan aldov, ochko‘zlik va sodda insonlardan foydalanish kabi illatlarni ochib beradi. Tulki odatda faol, gapga usta va reja tuzuvchi obraz sifatida namoyon bo‘ladi; u Pinokkioga turli yolg‘on va‘dalar berib, uni o‘ziga ishontira oladi. Mushuk esa aksincha, passivroq bo‘lib, Tulkining aytganlarini takrorlaydi va uni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, ular Pinokkioga “*Campo dei miracoli*” (Mo‘jizalar dalasi) haqida gapirib, pullarni ko‘msa, ularning ko‘payib ketishini aytadi. Tulki shunday deydi: *“Se semini quattro zecchini, domani ne raccoglierai duemila”* (Agar to‘rt tanga eksang, ertaga ikki mingta

yig'ib olasan). Mushuk esa bu yolg'onni mustahkamlab, go'yoki bunga ishonch bildiradi va Pinokkioda shubha uyg'onishiga yo'l qo'ymaydi. Shu orqali Mushuk obrazining mustaqil fikrga ega emasligi, balki boshqalarning yolg'onini qo'llab-quvvatlovchi "ko'r ergashuvchi" ekanligi yaqqol ko'rinadi.

Mushukning salbiy obraz sifatida talqin qilinishi aynan uning shu xususiyatlari bilan bog'liq. U mustaqil qaror qabul qilmaydi, yaxshilik va yomonlikni farqlashga harakat qilmaydi, balki yovuzlikka sherik bo'lib qoladi. Bu esa lingvokulturologik jihatdan jamiyatdagi "ko'r ergashuv" fenomenini ifodalaydi. Ya'ni, inson ba'zan o'z fikriga ega bo'lmasdan, boshqalarning noto'g'ri yo'lga ergashib ketishi mumkin.

Il Grillo Parlante (Chigirtka) obrazi Pinokkioning sarguzashtlari asarida alohida axloqiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan muhim obrazlardan biri hisoblanadi. U syujetda faol harakat qiluvchi qahramonlardan ko'ra ko'proq ichki ma'no va g'oyani ifodalovchi timsol sifatida namoyon bo'ladi. Chigirtka Pinokkioning yonida doimiy ravishda bo'lmasa ham, u paydo bo'lgan har bir vaziyatda muhim maslahat beradi va qahramonni to'g'ri yo'lga boshlashga harakat qiladi. Chigirtka obrazi, avvalo, Pinokkioning ichki ovozi, ya'ni vijdonining timsoli sifatida talqin qilinadi. U Pinokkioga noto'g'ri yo'l tutayotganini ochiq aytadi, uning xatolarini ko'rsatadi va oqibatlarini haqida ogohlantiradi. Masalan, Pinokkio o'qishdan qochib, sarguzasht ortidan ketmoqchi bo'lganida, Chigirtka unga bilim olish muhimligini tushuntiradi. Biroq Pinokkio dastlab bu maslahatlarni e'tiborsiz qoldiradi, bu esa uning hali bilimi yo'qligini ko'rsatadi. Chigirtkaning yordamchi obraz sifatida namoyon bo'lishi bir necha jihatlar bilan izohlanadi. Birinchidan, u Pinokkioning ichki nazorat mexanizmini ifodalaydi, ya'ni insonning ichida mavjud bo'lgan "to'g'ri va noto'g'ri ajratuvchi" ovozdir. Ikkinchidan, u har doim to'g'ri yo'lga ko'rsatishga intiladi, garchi uning maslahatlari darhol qabul qilinmasa ham. Uchinchidan, u axloqiy mezonlarni eslatib turadi, ya'ni har qanday harakatning natijasi borligini uqtiradi. Lingvokulturologik jihatdan bu obraz

juda muhimdir, chunki u italyan madaniyatida keng tarqalgan didaktik obrazlar tizimiga kiradi. Bunday obrazlar orqali bolalarga axloqiy qadriyatlar ya'ni halollik, mas'uliyat, itoatkorlik va vijdon tushunchalari singdiriladi. Chigirtka shunchaki qahramonga yordam beruvchi emas, balki o'quvchiga ham bevosita ta'sir qiluvchi, uni to'g'ri fikrlashga undovchi timsoldir.

Xulosa. Pinokkioning sarguzashtlari asarining lingvokulturologik tahlili shuni ko'rsatadiki, u oddiy bolalar ertagi darajasidan ancha yuqori bo'lib, murakkab ramziy tizimga ega bo'lgan madaniy matn sifatida namoyon bo'ladi. Carlo Collodi bu asar orqali nafaqat qiziqarli voqealarni bayon qiladi, balki jamiyatda mavjud bo'lgan axloqiy me'yorlar, ijtimoiy munosabatlar va tarbiyaviy qadriyatlarni ham badiiy shaklda ifodalaydi. Har bir obraz va voqea ortida chuqur ma'no yashiringan bo'lib, ular orqali o'quvchiga hayotiy saboqlar yetkaziladi.

Asardagi obrazlar tizimi orqali bir qator muhim g'oyalar ilgari suriladi. Avvalo, inson bo'lish biologik holat emas, balki axloqiy jarayon ekani ko'rsatiladi. Pinokkio dastlab yog'och qo'g'irchoq bo'lsa-da, u faqat tashqi ko'rinishi emas, balki ichki dunyosi — xulqi, qarorlari va harakatlari orqali haqiqiy insonga aylanadi. Bu esa insonning shakllanishi ma'naviy yetilish bilan bog'liq ekanini anglatadi. Shuningdek, asarda jamiyatda to'g'ri yashash uchun vijdon va mehnat muhim ekani alohida ta'kidlanadi. Pinocchio o'z xatolari orqali angelaydiki, oson yo'l bilan muvaffaqiyatga erishish mumkin emas, halollik va mehnatgina barqaror natija beradi. Shu bilan birga, asarda aldov va yovuzlik doimo salbiy oqibatlariga olib kelishi ko'rsatiladi. Masalan, Il Gatto e la Volpe kabi obrazlar orqali firibgarlik va yolg'onning zararli tomonlari ochib beriladi. Bundan tashqari, oilaviy qadriyatlar ham asarning markaziy g'oyalaridan biridir. Jepetto va Pinokkio o'rtasidagi munosabatlar orqali ota mehr-muhabbati, sabr-toqat va farzand tarbiyasining ahamiyati yoritiladi. Bu esa italyan madaniyatida oilaning muhim ijtimoiy institut sifatida qaralishini tasdiqlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Pinokkioning odamga aylanishi lingvokulturologik jihatdan individning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy me'yorlarni qabul qilishi va axloqiy kamolotga erishishi jarayonini ifodalaydi. Bu jarayon orqali muallif insonning haqiqiy qadri uning tashqi ko'rinishida emas, balki ichki dunyosi va axloqiy sifatlarida ekanini ta'kidlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. <https://www.treccani.it>
2. <https://www.britannica.com>
3. Carlo Collodi. *Le avventure di Pinocchio*. Firenze: Felice Paggi, 1883.
4. Carlo Collodi. *Pinocchio*. Translated by Carol Della Chiesa. New York: Macmillan, 1916.
5. Lotman, Yu.M. *Madaniyat va portlash*. Moskva: Gnosis, 1992.
6. Maslova, V.A. *Lingvokulturologiya*. Moskva: Akademiya, 2001.
7. Karasik, V.I. *Til va madaniyat*. Volgograd: Peremena, 2002.
8. Eco, Umberto. *Interpretatsiya nazariyasi va semiotika asoslari*. Milano: Bompiani, 1976.
9. Propp, V.Ya. *Ertak morfologiyasi*. Moskva: Labirint, 1998.

